

INSON SHA'NI, QADR-QIMMATI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISHGA DOIR HUQUQIY MEKANIZMLAR

Sodiqova Mahbubaxon Raxmonaliyevna, Otaboyeva Muazzamxon Abdumanapjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20265928>

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson sha'ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir huquqiy mexanizmlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda inson huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari, fuqarolik jamiyati institutlari, demokratik tamoyillar hamda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, inson qadrini ulug'lashga qaratilgan davlat siyosati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi hamda qonun ustuvorligining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson qadr-qimmati, inson huquqlari, demokratiya, huquqiy davlat, Konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, adolat, insonparvarlik, Yangi O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье научно анализируются правовые механизмы защиты чести, достоинства, прав и свобод человека. В исследовании раскрываются конституционные основы прав человека, институты гражданского общества, демократические принципы, а также сущность реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане. Кроме того, освещается значение государственной политики, направленной на возвышение человеческого достоинства, гармонию национальных и общечеловеческих ценностей, а также роль верховенства закона в развитии общества.

Ключевые слова: человеческое достоинство, права человека, демократия, правовое государство, Конституция, гражданское общество, верховенство закона, справедливость, гуманизм, Новый Узбекистан.

Abstract: This article scientifically analyzes the legal mechanisms for protecting human honor, dignity, rights, and freedoms. The study examines the constitutional foundations of human rights, the institutions of civil society, democratic principles, and the essence of reforms being implemented in New Uzbekistan. It also reveals the significance of state policy aimed at glorifying human dignity, the harmony of national and universal values, and the rule of law in the development of society.

Keywords: human dignity, human rights, democracy, rule of law state, Constitution, civil society, rule of law, justice, humanism, New Uzbekistan. Kirish

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalasi xalqaro hamjamiyatning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy mezoni hisoblanadi. Har qanday jamiyat taraqqiyoti, avvalo, unda inson manfaatlari qay darajada ta'minlanayotgani bilan belgilanadi.

Inson qadri tushunchasi faqat huquqiy kategoriya bo'lib qolmay, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va falsafiy mazmunga ega bo'lgan murakkab tushunchadir. Inson qadrini ulug'lash deganda, avvalo, uning yashash huquqi, erkin fikrlashi, daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatining himoyalanihi tushuniladi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida aynan inson qadri tamoyili turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” g'oyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan tahririda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid normalarning kengaytirilgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining ham muhim faoliyat yo'nalishiga aylangan.

Sharq mutafakkirlari ham qadimdan insonni ulug'lash, adolatli jamiyat qurish va komil insonni tarbiyalash g'oyalariga katta e'tibor qaratganlar. Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur va boshqa allomalarning asarlarida adolat, insonparvarlik va bag'rikenglik masalalari alohida o'rin egallaydi.

Mazkur maqolaning asosiy мақсади inson sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularning demokratik jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiylik, analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro huquqiy hujjatlar, Prezident asarlari, milliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi.

Shuningdek, inson huquqlari va fuqarolik jamiyati masalalariga oid ilmiy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida: inson huquqlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari; demokratik institutlarning shakllanishi; fuqarolik jamiyatining inson huquqlarini himoya qilishdagi roli; Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar ilmiy jihatdan o'rganildi. Bundan tashqari, Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson huquqlari haqidagi qarashlari tahlil qilinib, ularning o'zaro uyg'un jihatlari ochib berildi.

TADDIQOT NATIJALARI

TADDIQOT NATIJALARI

inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishning bir qator muhim huquqiy mexanizmlari mavjudligini ko'rsatdi.

Konstitutsiyaviy kafolatlarning ustuvorligi quyidagilarni ifoda etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning asosiy tamoyillaridan biri inson sha'ni va qadr-qimmatining daxlsizligini ta'minlash hisoblanadi.

Konstitutsiyada: yashash ҳуқуқи (25-modda); fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi (33-modda); vijdon erkinligi (35-modda); ta'lim olish huquqi (50-modda); mehnat qilish huquqi (42-modda); daxlsizlik ҳуқуқи kabi asosiy huquqlar kafolatlangan. Bu esa mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir.

ASOSIY

qonunimizda qonun ustuvorligi va adolat tamoyili davlat va jamiyat hayotining asosiy mezon sifatida mustahkamlangan. Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz ҳуқуқлари oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tamoyillar huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Qonun ustuvorligi tamoyili davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning Konstitutsiya hamda qonunlarga qat'iy rioya etishini anglatadi. Bunday tizimda hech kim qonundan ustun bo'lishi mumkin emas. Qonun

ustuvor bo‘lgan jamiyatda inson huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinadi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi ortadi va jamiyatda barqarorlik ta‘minlanadi.

Adolat tamoyili esa jamiyat taraqqiyotining ma‘naviy va huquqiy asosi hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari ham adolatni davlat boshqaruvining eng muhim mezoni sifatida baholaganlar. Xususan, Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida adolatli jamiyatni inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qiladi. Amir Temur ham davlatni boshqarishda adolat va qonuniylikka alohida e‘tibor qaratgan.

Bugungi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida ham inson qadri, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari turadi. Sud-huquq tizimini isloh qilish, inson huquqlarini ishonchli himoya qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash borasidagi chora-tadbirlar buning yaqqol dalilidir.

Shuningdek, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash ham qonun ustuvorligini ta‘minlashning muhim omillaridan biridir. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksak bo‘lgan jamiyatdagina adolat qaror topadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining roli: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa: mahalla tizimi; nodavlat notijorat tashkilotlari; yoshlar tashkilotlari; ommaviy axborot vositalari jamiyatda inson manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Mahalla instituti aholining muammolarini joyida hal qilish, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillari: Yangi O‘zbekistonda insonparvarlik va diniy bag‘rikenglik siyosati davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashashi inson qadri uchun ulug‘lashning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Yoshlarni bag‘rikenglik, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligini ta‘minlashning muhim omili sifatida baholandi. Chunki yosh avlodning ma‘naviy barkamol, huquqiy ongli va ijtimoiy faol bo‘lib voyaga yetishi davlat taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag‘rikenglik tamoyili turli millat, din va madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni anglatadi. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi davrda yoshlarni millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi esa yoshlarning ona yurtga sadoqatini, milliy qadriyatlarga hurmatini va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantiradi. Vatani sevgan yoshlar jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yadi, mamlakat ravnaqi uchun mas‘uliyat bilan yashaydi.

Insonparvarlik g‘oyalari esa yoshlarni mehr-oqibatli, adolatparvar, halol va ezgu fazilatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlari, jumladan, Alisher Navoiy va Abu Nasr Farobiy asarlarida insonni ulug‘lash, yaxshilik qilish va jamiyat manfaatiga xizmat qilish g‘oyalari alohida o‘rin egallaydi.

Shu bois ta‘lim-tarbiya tizimida yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot davomida inson sha‘ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini himoya qilish demokratik huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslab

berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida aynan inson qadri, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari turmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

ga ko'ra, inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari Konstitutsiya va qonunlar orqali mustahkamlangan bo'lib, fuqarolik jamiyati institutlari ushbu jarayonda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, mahalla tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, yoshlarni bag'rikenglik, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omili ekanligi aniqlandi. Chunki ma'naviy barkamol, huquqiy madaniyati yuksak va ijtimoiy faol yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi hisoblanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

yoshlar orasida inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillariga oid ta'lim dasturlarini kengaytirish;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish;

sud-huquq tizimida ochiqlik va shaffoflikni yanada rivojlantirish;

ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish.

XULOSA

qilib aytganda, inson qadrini ulug'lash, huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy mezonini bo'lib qolmoqda.

References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. –B. 43.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 15.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.. – B. 8.
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – Б. 11.
5. Rousseau J.J. Du contrat social. – Paris, 1762. – P. 25.
6. Гоббс Т. Левиафан. – Москва, 2001. – С. 84.
7. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom. 2011.
8. Ismoil Saifnazarov. Yangi O'zbekiston: Inson qadri ulug'langan yurt. – Toshkent. 2023.